




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o‘zgarishlar va ularning tahlili, so‘z asosida yuz beradigan o‘zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq ja‘niltpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarida o‘zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o‘zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko‘chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po‘lkan shoir ijrosidagi “Gulnor pari” dostonining morfologik xususiyatlari (bulung‘ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o‘zbeklar shevasi o‘rganilishining dolzarbligi	373

4-O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo‘shiqlarda an‘anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, “Alpomish” dostonida islomiy-ma’rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O‘zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO‘XTAQULOVA, Xalq qo‘shiqlari matnida “ko‘z” bilan bog‘liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an‘ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O‘zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

O'ZBEK XALQ EPOSIDA JANG TASVIRLARINING BADIY FUNKSIYASI

THE ARTISTIC FUNCTION OF BATTLE IMAGES IN THE UZBEKISTAN FOLK EPIC

Ilhom SAYITQULOV,

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/AUNI1173

Annotation. *This article investigates the artistic-aesthetic, psychological, and compositional functions of battle descriptions based on unique manuscript materials of the Uzbek heroic epic, specifically the «Kholdorkhon» and «Gorogly» series. The study demonstrates through systematic analysis and precise textual citations that battle scenes are not merely physical clashes or external displays of heroism. Instead, they serve as a leading artistic medium designed to reveal the inner psychology of the characters, depict social relationships between the army and rulers, balance the narrative environment from a lyrical-compensatory perspective, and ensure overall plot dynamics.*

Key words: *folk epic, folklore, battle description, artistic function, tactical planning, battle cry, epic psychologism, catharsis, bakhshi craftsmanship, compensatory function.*

O'zbek xalq жангнома дostonлари o'zining ko'p asrlik evolyutsiyasi davomida muayyan badiiy qoliplar va tasvir vositalari tizimini shakllantirgan. Xalq dostonlarining kompozitsion tuzilmasida jang sahnalari yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. An'anaviy folklorshunoslikda jang tasvirlari ko'pincha giperbola, mubolag'a yoki bahodirlikning tashqi namoyishi sifatida baholab kelingan. Ammo doston matnlarining chuqur badiiy-tekstologik tahlili shuni ko'rsatadiki, jang tasvirlari eposda chuqur nazariy, dramatik va psixologik funksiyalarni bajaradi. Ushbu maqolada jang jarayoni, undan oldingi va keyingi ruhiy holatlar, maslahatlar va jangdagi nutqlarning badiiy vazifalari "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi "Xoldorxon" dostoni materiallari asosida tahlil etiladi.

Doston matnining poetik tahlili jang tasvirlari o'zbek eposida quyidagi muhim badiiy-kompozitsion va g'oyaviy-estetik funksiyalarni bajarishini ko'rsatadi:

1. Jang oldi maslahatlari va taktik rejalashtirishning kompozitsion funksiyasi

Jangnoma dostonlarida jang oldi maslahatlari shunchaki voqealar bayoni emas, balki syujetni harakatlantiruvchi va unga dinamika beruvchi yetakchi kompozitsion usuldir. Dostonda ikki kuch – Go'ro'g'li va Xoldorxon маконларидаги kengashlar parallelizm (qiyosiy o'xshashlik) tamoyili asosida qurilgan.

Go'ro'g'li urushning sust kechishidan norozi bo'lib, yakkama-yakka olishmalardan ommaviy strategik hujumga o'tish taktikasini belgilaydi:

«...urushni har yoqdan, har tarafdin o'n-o'ndan, besh-beshdan qamab, qistab qamsab urushsanglar, bir gap bo'ladi-da. ... Jamiy bo'zbolani bir bo'lak qo'ying, miltiq bir bo'lak, qilich chopar bir bo'lak, kamon-andoz bir bo'lak – har kim o'z xili bilan o'z xiliga yugursin...» ("Xoldorxon" dostoni, 119-120-betlar).

Bu yerda badiiy funksiya lashkarning funksional tasnifini ko'rsatish va xalq harbiy san'atidagi differentsiatsiyani (qismlarga bo'lib urushish taktikasini) badiiy qonuniyat darajasiga ko'tarishdir.

Qarshi tomonda esa, Afsar zangining bandi bo'lishi Xoldorxonni chuqur psixologik inqirozga soladi. Bu vaziyatda vazirlar va umarolarning kengashi podshohni dadil qilish va syujetdagi umidsizlikni yangi kuchlar dinamikasiga almashtirish vazifasini bajaradi. Ularning «*Bir kun uning qo'li ustun bo'ladi, bir kun buning qo'li ustun bo'ladi, doim bir yoq bo'lib turmaydi*» (155-bet) degan falsafiy mushohadasi orqali folklordagi «epik muvozanat» va urushning o'zgaruvchan tabiati badiiy ifodasini topgan.

2. Jangovar da'vat va murojaatlarning obrazlar tabiatini ochishdagi (Ideya-estetik) funksiyasi

Jang maydonidagi she'riy murojaatlar – baxshilar ijodida qahramonlarning ichki dunyosi va axloqiy qiyofasini yorituvchi kuchli vositadir. Ahmad sardorning o'z olomoniga qarata aytgan murojaati sof «bosqinchilik va talonchilik poetikasi» asosiga qurilgan:

«*Sadag'a qurboning bo'lay, olomon, Sizga taqdir qildi elat mollari.... Ot qo'y, beklar, bu lashkarning ustiga.... O'lja qiring bo'y yotgan suluv qizini*» (198-200-betlar) .

Baxshi Ahmad sardor nutqi orqali salbiy obrazning axloqiy tubanligini, u uchun jang – el-yurt or-nomusi emas, balki mol-dunyo va xotin-qizlarni o'lja qilish ekanligini badiiy jihatdan muhrlaydi.

Bunga zid ravishda, Xidirali boyning o'z bo'z bolalariga qarata: «*Urug'lashsa, sizga agar bo'lishsa... Zo'rmisan, nosmisan, kuching bildiring*» (200-202-betlar) deya qon-qarindoshlik va elning sha'nini o'rta qo'yishi – «adolatli mudofaa urushi» konsepsiyasini badiiy ifodalaydi. Jang tasviridagi bu ikki qutb epik asarning g'oyaviy o'zagini (yaxshilik va yomonlik, mardlik va nomardlik to'qnashuvini) shakllantiradi.

3. Epik psixologizm: Qo'rquv, vahm va harbiy musiqa fenomeni

Jang lavhalarida raqib ruhiyatidagi qo'rquv va tahlikani tasvirlash orqali bahodirning kuch-qudratini bo'rttirib ko'rsatish (giperbolizatsiya) an'anaviy usul hisoblanadi. Qorovullarning Hasan Ko'lbar haqidagi taassurotlari shunchaki hikoya emas, balki qo'rquvning jismoniy-fiziologik bayonidir:

«*...qochib borgan qorovullarning jag'i qo'rqqanidan bir-biriga sharq-sharq etib tegadi. Ko'hna isitmasi tutib, dirillab, birovi gapira olmaydi*» (98-bet) .

Baxshi raqibning nutqi orqali Hasan Ko'lbar obrazini yanada vahmli va yengilmas qilib ko'rsatadi: «*Birdan piypab ming odamni yiqib ostiga bosib qoldi... U doim odamni yer emish...*». Bu yerda badiiy funksiya «dushman ko'zi bilan bahodirga baho berish» taktikasidir.

Shuningdek, Taka-Yovmit lashkaridagi karnay, surnay, nog'ora va ko's sadolarining olamni buzishi, dushman qo'shinining «*davur kayfi uchib, yuragi zir etishi*» – folklordagi akustik (dovo'sh) psixologizmidir. Bunda tovushning o'zi jangovar qurol vazifasini bajaradi: miroxo'rlar otni unutib dalaga qochadi, suvga borganlar ko'zasini tashlab tengsaladi, butun qo'shinning aqli shoshib, qulog'i chippa bitadi (304-bet) . Bu lavha jangning faqat tig'lar bilan emas, ruhiy-vahm bilan ham yutilishini ko'rsatadi.

4. Mag'lublik ruhiyati va dushman insofining badiiy talqini (Katarsis)

Xalq eposining eng yuksak insonparvarlik funksiyasi – mag'lub qahramonning ichki inqirozi va pushaymonligini haqqoniy tasvirlashda ko'rinadi. Butun lashkari birgina

Hasan Ko'lbarga bas kelolmagach, Xoldorxonning ruhiy holati monolog orqali yuksak dramaturgiyaga ko'tariladi:

«Bir odamni ololmadik, Qani mening shohliliklarim.... Buytib shoh bo'p lashkar qilib, Yurgandan podabon yaxshi.... Podsholikni taloq qilidim, Endi gadoylikni suydin» (172-175-betlar) . Jang tasviri bu o'rinda podshohning o'zligini anglashi, nodonligi va mag'rurligi uchun ruhiy poklanish (katarsis) bosqichiga o'tishini ta'minlagan.

Xuddi shunday, Shoh Qaysarning Beksara va Avazxon bilan to'qnashuvlardan so'ng , raqibning yoshligiga qaramay ko'rsatgan sherligiga tan berib : «*Turkman haddan ziyoda bahodir polvon ekan, uning yigitlariga barakalla, urning erligini bilmak kerak, qoyil bo'lmoq kerak*» (279-bet) deyishi – o'zbek dostonchiligida raqibning mardligini ulug'lash, urush maydonida ham insof va adolat mezonlarini saqlash g'oyasiga xizmat qiladi.

5. Jangdagi hiyla va firiblarning lirik-dramatik funksiyasi

Epik jang faqat qurolli to'qnashuvdan iborat bo'lsa, tinglovchini charchatib qo'yadi. Shu sababli baxshilar jang tizimiga dramatik va lirik hiylalarni singdiradilar. Tumaloq polvonning Hasan Ko'lbarg qo'liga tushganda ishlatgan «*men senga g'oyibona do'stman... Ko'hi Qofida, Eramning bog'ida senaday bahodir yo'q*» degan laqabli aldovlari jang sahnasiga komik va hayotiy bo'yoq olib kiradi. Bahodir Ko'lbarning bu maqtovlarga «*laq etib tushib qolishi*» (115-116-betlar) esa uning sodda va go'l tabiatini ochib, obrazni idealashtirishdan asraydi va hayotiyashtiradi.

6. Jangdan keyingi rag'batlantirish va bazmning estetik-kompensatorlik funksiyasi

Jang sahnalarining yakuniy nuqtasi – g'oliblarni taqdirlash va shohona bazmlardir. Go'ro'g'libekning xazina ochib, botirlarga tilla-tanga sochishi , Ko'lbarni «jahon polvoni» va «lashkarboshi» etib tayinlashi (153-154-betlar) urushdan keyingi ijtimoiy adolat va iyerarxiyani tiklash vazifasini bajaradi.

Hasan Ko'lbarg uchun uyushtirilgan bazm va undagi go'zal mahramlarning «allayor» she'riy aytishuvlari esa dostonidagi eng muhim estetik-kompensatorlik (tinchlantiruvchi, muvozanatga keltiruvchi) funksiyani bajaradi. Qonli jang, qilich va nayza tovushlaridan charchagan tinglovchi/o'quvchi birdan lirik, nafasat va go'zallik dunyosiga ko'chadi. Sahroyi polvonning soqiy qizlar davrasida bo'za ichib, «*bashikka solgan boladay irg'alib*» mast bo'lishi va atrofidagilarning undan kulishi (182-188-betlar) – urushning og'ir va sovuq havosini tarqatib, asar muhitini yengillashtiradi va tinglovchiga yuqori estetik zavq bag'ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq jangnoma dostonida jang tasvirlari shunchaki syujetni harakatlantiruvchi omil emas. Ular kompozitsion jihatdan syujet bosqichlarini (maslahat, to'qnashuv, bazm) o'zaro bog'laydi. Ideya-estetik jihatdan obrazlarning asl ichki tabiatini (Ahmad sardorning xoinligi, Xidirali boyning tantiligi) ochib beradi. Psixologik planda esa insonning qo'rquv, iztirob, mag'lublik va g'oliblik onlaridagi ichki kechinmalarini yuksak badiiy tilda ifodalaydi. Bu xususiyatlar o'zbek dostonchilik maktablari ijrochilarining yuksak badiiy mahorati va epik tafakkur miqyosidan dalolat beradi.

